

ADABIYOTDA MODERNIZM TUSHUNCHASI

Ruxshona Tursunboyeva Rustamjonovna

Samarqand shahar 59-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +998906555562

Annotatsiya. *O'zbek adabiyotida modernism uslubi va g'arb adabiyoti va san'atining umumiy tavsifi tarzida bir necha o'lchovlar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar. *Modernism, modern, adabiyot, san'at, g'oya, Yevropa, inqilob, markazsiz dunyo.*

So'nggi yillar o'zbek adabiy tanqidchiligida modernizm va modern adabiyoti haqida ko'p yozishayapti, bahs-munozaralar bildirilmoqda. Aslida, o'tgan asr G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyoti va san'atida yetakchi oqim sanalgan modernizm tanqidiy realizm, xususan sotsialistik realizm aqidalariga qarama-qarshi pozitsiyada turgan adabiy oqim bo'lib, asrning oltmishinchi yillarida o'z umrini yashab bo'ldi va o'rnini postmodernizm deb ataluvchi yangi oqimga bo'shatib berdi. XX asrning oxiriga kelib postmodernizm ham inqirozga yuz tutdi. Endilikda jahon adabiyotidagi avangard doiralar yana yangicha uslublarni kashf etishga urinmoqdalar.

Modernizm XX asr g'arb adabiyoti va san'atining umumiy tavsifi tarzida bir necha o'lchovlarda mavjud bo'lib, bizningcha ularni quyidagi mazmunda xulosalash mumkin.

Birinchidan, modernizm – bu zamonlar oralig'idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o'rtasidagi ixtiloflarni o'z g'oyaviy qarashlari bosh mezonini qilib olgan yuz yillikning ma'naviy qiyofasidir. Uning ortida F. Nitssening “xudolar o'limi” falsafasi, Yevropa xaritasini qayta tuzgan siyosiy inqiloblar va ilmiy kashfiyotlar, totalitar tuzumga asoslangan diktaturalar, xunrezlik urushlari, informatsion portlashlar, sivilizatsiyaning koinotga chiqishi kabi global o'zgarishlar yotibdi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, uning ortida “markazsiz dunyo” (U. B. Yeyts)-ning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ob'yektiv borliq qonuniyatlarining insoniyat tarixida chuqur ildiz otolmaganligi, mustahkam o'rnashib ololmagani, epis-temologik dudmolligi hamda muayyan shaklga keltirilgan utopik (ilmga asoslanmagan, amalga oshmaydigan, xomxayol) orzu-umidlar bilan shaklsiz, noaniq antiutopik voqelik o'rtasidagi hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatlarning mavjud ekanligida edi.

Ikkinchidan, o'tgan yigirmanchi yuz yillikda kechgan adabiy jarayon ko'pgina raddiyalarga qaramasdan modernizmdan inkor etib, bir chetga surib tashlagani yo'q, aksincha, uni inkor qilish orqali yanada davom etishiga yordam berdi va o'z doirasiga “modernizmdan tashqaridagi modernistlar” deya hisoblagan mualliflar. S. Kyerkegor, H. Ibsen, G. Melvill, Sh. Bodler, A. Rembo, S. Mallarme, F. Nitsshe, F. Dostoyevskiy, G. Jeyms, A. Strindberg, J. Konrad va boshqalarning asarlarini og'dirib oldi. Aksincha, ayrim buyuk nomlar (V. Skott, V. Gyugo, A. de Vini, Ch. Dikkins, A. Tennison, G.

Longfello)ning badiiy ijoddagi qadr-qimmatini pasaytirildi, boshqalari (G. Flober, E. Zolya, J. Elliot, U. Uitmen, P. Verlen) esa asos-isbotsiz jahon adabiyoti peshsahnasiga chiqarib qo'yildi. Eng muhimi, modernizm XX asrning asosiy ijodiy kashfiyoti – sub'yektivlikni tadqiq qilishda davom etdi va tezis-antitezis, “modernizm”- “kontrmodernizm” vositasida individual uslubning stilistik imkoniyatlarini amalga tadbqiq qildi. Postmodernizm davriga kelib u uslubdan ko'ra ko'proq sifat ko'rinishiga ega bo'ldi.

Uchinchidan, modernizm – aslida bu bir-biri bilan kurash olib borgan, o'zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar, manifestlar, dasturlar majmuasidir.

XX asr adabiyotida modernizmdan ustun turuvchi yana biror ijodiy oqim mavjudmide, degan savolning bo'lishi tabiiy. Bu savolga ijobiy yoki salbiy ma'noda javob topish osondek tuyulsa-da, fikrimizcha, modernizm adabiyotni o'rganish doirasidan chiqib ketdi. Aslida modernizmning o'zi va uning qonun-qoidalarini aniq kashf qilinmagan bir holatda XX asr qalamkashlarining qariyb barchasi u yoki bu taqlidda “modern kasali”ga muhtalo bo'ldilar.

Axborot kommunikatsiyalarining qudratli kuchi xususida 1960-yillardayoq amerikalik tanqidchilar qayd qilganidek, endilikda eng topqir yozuvchining ham gazetada bosilgan, televideniya da berilgan, internet orqali uzatilgan axborot bilan bellashishga qurbi yetmaydi, bu uning ko'lidan ham kelmaydi. Gazeta, televideniya va internet xabarlarini istalgan to'qima va uydirmadan iborat bo'lsa-da “shubhasiz to'g'ri”, “mohirona ishlangan”, odamlarda “kuchli taassurot qoldiradigan” yangilik bo'lib bormoqda.

XX asr oxirlashib qolgan bir paytda uning yana o'z boshiga qaytganidan darak beruvchi alomatlar sezila boshlagandi. Ya'ni yuz yil burun aytilgan “G'arb sivilizatsiyasining poyoniga yetganligi” mavzusiga yana qaytildi. Fransuz shoiri Sharl Bodlarning “Biz hammamiz go'yoki abadiy dafn marosimida qatnashayotgandekmiz” mazmunidagi hikmatli so'zlarini anglab olishga, mag'zini chaqishga qaytganligimiz bilind qoldi. Ayrimlari, J. Papini qalamiga mansub “Oxirgi odam”, O. Shpenglarning “Yevropa zavoli”, A. Blokning “Gumanizm halokati”, P. Valerining “Ruh tangligi”, E. Gusserlning “Yevropa odami va falsafasining tangligi” boshqa nomlar, ya'ni Romano Gvardini qalamiga mansub “Yangi zamon oxiri”, Daniel Bellning “Mafkura intihosi”, Rolan Bartning “Muallif o'limi”, Ixab Xasanning “Orfey halokati”, F. Fukuyamaning “Tarix xotimasi va oxirgi odam”, Semyuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” bilan almashdi. Baribir ham, Zigmund Freyd aytganidek, shartli ravishda “madaniyat qanoatlanganligi” deb nom olgan tamoyil o'zgarmasdan eskicha holidan qolaverdi. Gap shundaki, ilg'or g'arb madaniyati o'zining liberalizm ruhida ideallariga sodiq qolib, kelajak loyihalarini tuzishni, tarixning u yoki bu “xato”larini tuzatishni davom ettirgani bilan, ayni vaqtning o'zida, inson erkinligi muammosi bilan bog'liq ziddiyatlar hal qilinmaganligi tufayli, baribir orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, XX asr modernizm adabiyoti ham xuddi XIX asr romantizm adabiyoti singari madaniy ma'no doirasiga aylandi, uning ichida g'arb dunyosi qadriyatlarini tanqidiy

ji hatdan tekshiruvdan o'tkazildi. Ular jahon adabiyoti tarixida yashab qolishga, XXI asr adabiyotida yalovbardor bo'lishga loyiqmi yoki yo'qmi – buni kelajak ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ozod Sharafiddinov: "Modernizm — jo'n hodisa... Emas «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2002 Yil 23-24-son.
2. Бобоев Т. Шеър илми таълими. Т.: Ўқитувчи, 1996.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т.: Ўқитувчи, 1986.
4. Мирқосимова М. Сўз изтироблари. Т.: Миллий кутубхона нашриёти, 2010.
5. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? Т.: Шарқ, 2001.

